

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**RESPUBLIKA XIRURGIK ANGIONEVROLOGIYA IXTISOSLASHTIRILGAN
MARKAZI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA**

Surunkali miya qon-tomir yetishmovchiligi bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olish va davolashning samarali tizimini tashkil etish, uyqu arteriya stenoziga chalingan bemorlarni xirurgik davolashning zamonaviy usullarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-klinikasining angionevrologiya bo‘limi negizida Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashtirilgan markazini (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) tashkil etish, uning bemorlar o‘rin fondini 40 o‘ringacha yetkazish, shu jumladan 20 ta o‘rin pulli asosda tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga ta‘minlanishi haqidagi taklifi qabul qilinsin.

Belgilansinki, Markaz davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, o‘z muhriga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligida g‘aznachilik hisob raqamlariga egadir.

2. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

angionevrologiya sohasida muvofiqlashtirish markazi funksiyalarini amalga oshirish, miya qon-tomir yetishmovchiligi kasalliklari profilaktikasi, diagnostikasi va ularni davolashning zamonaviy usullarini eng avvalo hududiy tibbiyot muassasalari amaliyotiga joriy etish bo‘yicha metodik rahbarlikning samarali vertikalini shakllantirish;

malakali angionevrolog mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirish, hududiy tibbiyot muassasalarida mahorat darslari hamda ko‘rgazmali operatsiyalar, ta‘lim beruvchi ma‘ruzalar va seminarlar tashkil etish;

miya qon-tomir yetishmovchiligi bilan bog‘liq kasalliklar sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish;

miya qon-tomir yetishmovchiligi kasalliklarini davolashning zamonaviy usullarini joriy etish yo‘li bilan uyqu va yurakning qon tomirlari arteriyalari shikastlanishiga chalingan bemorlarni davolash;

surunkali miya qon-tomir yetishmovchiligi kasalligiga chalinish bilan bog‘liq holatlarni doimiy ravishda tahlil qilgan holda O‘zbekiston Respublikasida insult kasalligi milliy registrini ishlab chiqish.

3. Belgilansinki:

Oldingi tahrirga qarang.

“Sog‘liqni saqlash” tarmog‘iga ajratiladigan budjet mablag‘lari, Davlat ilmiy dasturlarini amalga oshirish doirasidagi grantlar mablag‘lari, pulli xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan budjetdan tashqari mablag‘lar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar Markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi;

(3-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 27-avgustdagi 545-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)

Markazning O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan bemorlar o‘rin fondi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan respublika muassasalarining bemorlar o‘rin fondi doirasida shakllantiriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bir oy muddatda:

Markazning tuzilmasi va ustavini tasdiqlasin, uning belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin, shuningdek Markazni amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan yuqori malakali tashabbuskor kadrlar bilan butlasin;

Markazni Toshkent shahri, Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy manzili bo'yicha Toshkent tibbiyot akademiyasining 2-kilinkasi hududida joylashtirish tadbirlari amalga oshirilishini ta'minlasin;

diagnostika va statsionarda davolanish uchun Markazga yo'llanma (order)ni birinchi navbatda olish huquqini beruvchi miya qon-tomir yetishmovchiligiga chalingan bemorlar toifalari ro'yxatini belgilangan tartibda ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda Magistratura oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari tasniflagichiga "qon-tomir xirurgiyasi" mutaxassisligini kiritsin;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Mehnat vazirligi bilan birgalikda Markazning shtat normativlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining asoslangan hisob-kitoblari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari parametrlarida Markazni joriy ta'minlash va tibbiyot uskunalari bilan jihozlash uchun zarur budget mablag'lari ajratilishini nazarda tutsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sog'liqni saqlash, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari axborot-tahlil departamentiga va O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri A.K. Shodmonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017-yil 14-mart,
136-son

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 11-son, 164-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)